

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|---|-----|
| D.G'.Mo'minov, X.O.Abdinazarova | |
| Tabiiy landshaftlardan iqtisodiy – ijtimoiy geografik foydalanishning bazi masalalari | 144 |
| M.O.Gopirov | |
| Изменения в территориальной структуре автомобильной промышленности США | 148 |
| Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev | |
| Ershi shahrining yuzaga kelishi va rivojlanishda geomorfologik omillarining o'rni va ahamiyati | 153 |
| K.M.Mahmudov, X.T.Egamberdiyev, G.X.Xolbayev, S.M.Muminova | |
| Iqlim o'zgarishi sharotida havo harorati hamda atmosfera yog'inlarining o'zgarishini baholash (Andijon viloyati bo'yicha) | 157 |
| O.I.Abdug'aniyev, Z.I.Mamirova, N.A.Ahmadjonova | |
| Yer tuzish ishlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni loyihalashtirish va asoslash..... | 167 |
| A.M.Toshpo'latov, Sh.Z.Jumaxanov | |
| Anklav hududlarni geografik tadqiq etishning konseptual asoslari..... | 172 |
| D.R.Eshmirzayev, G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev | |
| Iqlim o'zgarishi sharotida havo haroratining davrlar bo'yicha o'zgarishini baholash (Samarqand viloyati misolida) | 180 |
| E.G'.Mahkamov, Sh.Sh.Hakimova | |
| Tabiatdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning tarixiy-ekologik jihatlari | 186 |
| Y.I.Ahmadaliyev, B.S.Tojidinov, X.I.Saidova | |
| Yer resurslarini majmuali tadqiq etishga geografik yondashuvning zarurati..... | 190 |
| N.O'.Komilova | |
| Etnoekologik tadqiqotlarning ijtimoiy-geografik yo'nalishlari va bosqichlari..... | 195 |
| Y.I.Ahmadaliyev, P.S.Otaqulov, A.E.Madraximov | |
| Geografik terminlarning tabiatni muhofaza qilishdagi o'rni va ahamiyati..... | 199 |
| Z.A.Temirov, D.A.Turg'unboyeva | |
| Tashqi mehnat migratsiyasining demografik jarayonlarga ta'siri..... | 206 |
| O.I.Abdug'aniyev, M.M.Qahhorova | |
| Tayanch ornitologik hududlarini muhofaza qilishning ekologik-geografik jihatlari..... | 212 |
| M.M.Atajonov | |
| Andijon viloyati qishloq joylarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning ba'zi bir masalalari | 217 |
| A.A.Isayev, S.A.Ergashev | |
| Andijon viloyatida paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan sikkili ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish | 220 |
| M.N.Dehqonboyeva, M.R.Mahammadova | |
| Farg'ona viloyatida yo'ldosh shaharlar loyihasining ayrim jihatlari | 224 |
| D.M.Abduraxmonov | |
| Landshaftlarni funksional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar | 230 |
| D.B.Kosimov | |
| Chegara hududlaridagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni integratsiyasining nazariy asoslari | 234 |
| H.N.Naimov | |
| Landshaftlarni kartalashtirish va ulardan foydalanish masalalari (Shimoliy Farg'ona misolida) | 239 |
| M.H.Otamirzayeva | |
| Daryo havzasi landshaftlarining strukturasi va funksiyasini shakllantiruvchi tabiiy, biologik va ijtimoiy tizimlar | 243 |
| U.Sh.Uktamov | |
| Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarining antropogen omillar ta'sirida sodir bo'layotgan o'zgarishlari..... | 248 |
| S.M.Xudoyberdiyeva | |
| Talabalarda sport turizmi ko'nikmalarini shakllantirishda tabiat elementlarining o'rni | 252 |
| T.D.Komilova | |
| Hududlarning ekologik karkasini rejalashtirishda landshaft yondashuvidan foydalanish | 257 |

**ANDIJON VILOYATI QISHLOQ JOYLARIDA AHOLIGA TIBBIY XIZMAT
KO'RSATISHNING BA'ZI BIR MASALALARI**

**НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ МЕДИЦИНСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ НАСЕЛЕНИЯ В
СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ**

**SOME ISSUES OF PROVIDING MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION IN RURAL
AREAS OF ANDIJAN REGION**

Atajonov Murodjon Maxmudovich¹

¹Andijon davlat universiteti, dotsent

Annotatsiya

Maqola Andijon viloyati qishloq joylarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning ayrim ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosida, uning rivojlanish xususiyatlari va omillari, hududiy tafovutlarini aniqlash, mazkur tizimning hududiy tarkibini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga bag'ishlanadi. Unda geografik taqqoslash, tizim-tarkib, statistik tadqiqot metodlaridan foydalananilgan.

Tadqiqotda viloyat qishloq tumanlari har 10000 aholining shifoxona va ambulatoriya-poliklinika o'rirlari, vrachlar hamda o'rta tibbiy xodimlar bilan ta'minlanish ko'rsatkichlari bo'yicha guruhash asosida baholandi. O'rganishlar shuni ko'rsatdi, qishloq joylarda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish, uning sifatini yaxshilash, joylarda tibbiy muassasalarining moddiy-tehnika bazasini mutahkamlash talab etiladi.

Аннотация

Статья посвящена анализу некоторых показателей оказания медицинских услуг населению в сельской местности Андижанской области, особенностей и факторов его развития, определению региональных различий, разработке научно обоснованных предложений и рекомендаций, направленных на улучшение территориального структуры этой системы. В ней использовались географическое сравнение, системно-структурные, статистические методы исследования.

В ходе исследования сельские административные районы оценивались на основе группировки по показателям обеспеченности больничными и амбулаторно-поликлиническими койками, врачами и средним медицинским персоналом на 10 000 жителей. Исследования показали, что необходимо совершенствовать систему медицинского обслуживание населению в сельской местности, повышать ее качество, укреплять материально-техническую базу местных медицинских учреждений.

Abstract

The article is devoted to the analysis of some indicators of the provision of medical services to the population in rural areas of the Andijan region, the characteristics and factors of its development, the identification of regional differences, the development of scientifically based proposals and recommendations aimed at improving the territorial structure of this system. It used geographical comparison, system-structural, and statistical research.

During the study, rural administrative areas were assessed based on grouping according to the provision of hospital and outpatient beds, doctors and paramedical personnel per 10,000 residents. Research has shown that it is necessary to improve the medical care system for the population in rural areas, improve its quality, and strengthen the material and technical base of local medical institutions.

Kalit so'zlar: qishloq joylar, qishloq aholisi, ijtimoiy infrastruktura, aholiga xizmat ko'rsatish, tibbiy xizmat, hududiy tarkib, "markaziy joylar", aholi ehtiyojlari, aholining ta'minlanishi, davolash-profilaktika muassasalari.

Ключевые слова: сельская местность, сельское население, социальная инфраструктура, обслуживание населения, медицинское обслуживание, территориальная структура, «центральные места», потребности населения, обеспеченность населения, лечебно-профилактические учреждения.

Key words: rural area, rural population, social infrastructure, public services, medical services, territorial structure, "central places", needs of the population, provision of the population, medical institutions.

KIRISH

Mamlakatimizda so'nggi yillarda jamiyatning barcha sohalarida keng ko'lamli o'zgarishlar sodir bo'lib, joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni jadalashtirish davlatning muhim strategik vazifalaridan biriga aylandi. Hududlar, shu jumladan qishloq joylarni kompleks rivojlantirishga qaratilgan ko'plab farmon va qarorlar e'lon qilindi, dasturlar ishlab chiqildi. Mahalliy hokimiylatlarga dasturlarning maqsad va vazifalari, ularni ijro tartibi va amalga oshirish mexanizmini mustaqil belgilash imkoniyati berildi. Biroq, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarning bajarilishiga qaramasdan, qishloq joylar ijtimoiy sohalaridagi muammolar to'laligicha bartaraf etilgani yo'q.

Qishloq joylar asosiy muammolariga ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ob'yektlarning kamligi yoki yo'qligi, ijtimoiy muassasalar moddiy-tehnik bazasining holati, kadrlar malakasi va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining pastligi kabilarni kiritish mumkin. O'z navbatida qishloq joylarga xos bo'lgan xususiyatlari, ya'ni qishloq aholisi tabiiy harakatining yuqoriligi, qishloq joylar

hududining kattaligi va eng avvalo ularda ijtimoiy infrastrukturaning quyi bo'g'inlarining joylashuvi yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolarni yanada keskinlashtiradi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolar ayniqsa, maydoni kichik, ammo demografik salohiyati yuqori bo'lgan Farg'ona mintaqasi, jumladan Andijon viloyati qishloq joylarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bois ham, aholining ijtimoiy rivojlanishiga e'tiborni kuchaytirish, uning turmush sharoitlarini yaxshilash, qishloq joylarning infrastruktura salohiyati, xususan, sog'iqliqi saqlash tizimini rivojlantirish borasidagi islohotlarni jadallashtirish zarur.

Ma'lumki, aholining o'tracha umr ko'rish yoshi mamlakatlardan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasini ko'rsatuvchi birlamchi indikatorlardan sanaladi. Bu esa, o'z navbatida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish infrastrukturasing miqdor va sifat jihatdan to'g'ri hududiy tashkil etilganligi bilan chambarchas bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish nazariyasiga oid dastlabki asarlar 1960 va 1970 yillarda chet el olimlari Rosenstain-Rodan va J.Boudeville asarlarida paydo bo'lgan. Xizmat ko'rsatish soxalarini hududiy tashkil etilishining konseptual asosi sifatida V.Kristallerning "markaziy joylar" va aholining ijtimoiy ehtiyojlarini nazariyasi xizmat qiladi. Shuning uchun ham, viloyat hududlarining geodemografik tahlili hamda aholi joylashuvning geografik xususiyatlari, qishloq tumanlarida xizmat ko'rsatish tizimining holatini baholash hamda shu asnoda aholining turmush sharoitlari, ijtimoiy-ma'naviy rivojlanish ehtiyojlarini o'rghanish maqsadga muvofiq.

Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish davolash-profilaktika va ambulatoriya-poliklinika muassasalari orqali amalga oshirilib, qishloq joylarda mazkur tizim iyerarxik ko'rinishda tashkil etiladi hamda har 10000 ming kishiga to'g'ri keluvchi kasalkona va ambulatoriya-poliklinika muassasalari o'rni bilan baholanishi zarur.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2022-yilda Andijon viloyati bo'yicha 162 ta shifoxona muassasalari faoliyat ko'rsatgan (2020-yilda bu raqam 154 taga teng bo'lgan). O'rinlar soni 14390 bemor o'rниga to'g'ri kelib, 2020-yilga nisbatan 1321 taga kamaygan. Tibbiyot muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan shifokorlar soni 8275 nafar, o'rta tibbiyot xodimlarining soni esa 41,4 ming nafarni tashkil etadi.

Andijon viloyati qishloq tumanlarida har 10000 aholini vrachlar bilan ta'minlanishida hududiy tafovutlar mavjud. Jumladan, 2022-yilda bu ko'rsatkich 10-14 tani tashkil etuvchi tumanlar guruhiга 7 ta tuman kiritilib, ularda viloyat jami qishloq aholisining 56 foizi istiqomat qiladi. Viloyat o'tracha ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan tumanlarga faqat Buloqboshi, Xo'jaobod va Qo'rg'ontepaga tumanlari kiradi, xolos (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Har 10000 kishiga to'g'ri keladigan vrachlar soni (2022 y.)

| Guruhrar | Tumanlar | Tumanlar soni | Qishloq aholisi soni, ming kishi | Viloyat jami qishloq aholisidagi ulushi, foizda |
|--------------------------------|---|---------------|----------------------------------|---|
| 10 - 14 gacha | Andijon, Asaka, Baliqchi, Bo'ston, Jalaquduq, Izboskan, Oltinko'l | 7 | 869,3 | 55,0 |
| 14 - 18 gacha | Marhamat, Ulug'nor, Paxtaobod, Shahrixon | 4 | 437,2 | 27,6 |
| 18 va undan yuqori | Buloqboshi, Xo'jaobod, Qo'rg'ontepaga | 3 | 274,8 | 17,4 |
| Viloyat bo'yicha – 15,5 | | 14 | 1581,3 | 100,0 |

Jadval Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Har 10000 aholiga to'g'ri keluvchi o'rta tibbiy xodimlar soni ham tumanlar miqyosida bir xil emas. Chunonchi, 2022-yilda bu ko'rsatkich viloyatda 86,8 tani tashkil etgani xolda, Buloqboshi, Bo'ston, Ulug'nor, Xo'jaobod tumanlarida yuqori ko'rsatkichlar, qolgan tumanlarda esa nisbatan past miqdorlar kuzatildi (2-jadvalga qarang).

2022-yilda Andijon viloyatida 577 ta ambulatoriya-poliklinika muassasalari faoliyat ko'rsatgan. Ularning 85 tasini qishloq vrachlik punktlari (QVP) tashkil etadi. Holbuki, 2015-yilda 312 ta QVP mavjud bo'lgan. Bir smenada qatnovlar soni 56,4 ming bemorga to'g'ri kelgan.

Har 10000 kishiga to'g'ri keladigan o'rta tibbiy xodimlar soni (2022 y.)

| Guruhlari | Tumanlar | Tumanlар soni | Qishloq aholisi soni, ming kishi | Qishloq aholisidagi ulushi, foizda |
|--------------------------------|--|---------------|----------------------------------|------------------------------------|
| 60-80 gacha | Andijon, Jalaquduq, Izboskan, Oltinko'l, Shahrixon | 5 | 651,5 | 41,2 |
| 80-100 gacha | Asaka, Baliqchi Marhamat, Paxtaobod, Qo'rg'ontep | 5 | 678,9 | 42,9 |
| 100 va undan yuqori | Buloqboshi, Bo'ston, Ulug'nor, Xo'jaobod | 4 | 250,9 | 15,9 |
| Viloyat bo'yicha – 86,8 | | 14 | 1581,3 | 100,0 |

Jadval Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Har bir tumanning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishi tibbiy xizmat muassasalarning hududiy tashkil etilishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shuning uchun, shifoxonalar miqdori Andijon (68 ta), Paxtaobod (20 ta), Shahrixon (17 ta), Asaka (12 ta) tumanlarida ko'p, qolgan tumanlarda esa nisbatan kamdir. Ushbu kasalxonalaridagi kasal o'rinnari miqdoridagi ahvol ham xuddi shunday. Bundan tashqari, yotib davolanuvchi kasallar sonining o'sib borishi kasal o'rinnariga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi.

Tuman kasalxonalarining poliklinika muassasasiga murojaat qiluvchilar soni 2016-yilda 425,7 ming kishi bo'lsa, 2022-yilda bu raqam 586,0 ming kishiga yetdi.

XULOSA

Ma'lumki, tibbiy xizmat ko'rsatishning hududiy tashkil etilishi ko'p jihatdan aholi joylashuvi xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Ayni vaqtida qishloqlar bilan tuman markazlari orasidagi masofa ham unchalik katta emas. Tabiiyki, bunday sharoitda tibbiy xizmat ko'rsatishning hududiy tashkil etilishi va rivojlanishida o'ziga xos imkoniyatlar vujudga keladi, ya'ni qishloqlarda tibbiy xizmat ko'rsatish muassasalarini quyi pog'onalarini emas, balki uning o'rta va yuqori darajadagi turlarini ham barpo etishni taqozo etadi. Biroq, yangi iqtisodiy sharoitda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish murakkab masala bo'lsada, birinchi tez tibbiy yordam muassasalari, ayollar maslahatxonalar qishloq joylar uchun juda muhimdir.

Sog'liqni saqlash sohalari tadqiq etilayotgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholining turmush sharoitini belgilovchi asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. O'rganishlarga ko'ra har 10000 aholining shifoxona va ambulatoriya-poliklinika o'rinnari bilan ta'minlanish ko'rsatkichlari Bo'ston (17,1), Ulug'nor (17,3), Jalaquduq (22,8), Qo'rg'ontep (24,3), Andijon (23,7) tumanlari past ekanligi aniqlandi. Mazkur tumanlarda qishloq aholisiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatning miqdor va sifat jihatidan takomillashtirishga qaratilgan moliyaviy resurslarni yo'naltirish talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Andijon viloyatining statistik axborotnomasi. – Andijon, 2022. – B. 185. (Statistical newsletter of Andijan region. - Andijan, 2022. - P. 185.).
2. Atajonov M.M. Andijon viloyati qishloq joylarida ijtimoiy infrastruktura tizimining hududiy tarkibini takomillashtirish. Monografiya. – Andijon, 2023. – 160 b. (Atajonov M.M. Improving the territorial structure of the social infrastructure system in rural areas of Andijan region. Monograph. - Andijan, 2023. - 160 p).
3. Atajonov M. Qishloq joylarda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni hududiy tashkil etishning ayrim masalalari // O'zbekiston Geografiya jamiyatni axboroti. 26-jild. - Toshkent. 2005.- B. 89-92. (Some issues of regional organization of medical services to the population in rural areas // Information of the Geographical Society of Uzbekistan. Volume 26. - Tashkent).
4. Komilova N.Q., Jumaxanov Sh.Z., Toshpo'latov A.M. Sotsial va madaniy geografiya. Darslik. -T.: "Shafoat Nur Fayz", 2020. 256 b.(Social and cultural geography).
5. Nazarov M.I. Qishloq aholisi va uning ijtimoiy infratuzilma bilan ta'minlanishining ba'zi bir masalalari (Farg'ona iqtisodiy rayoni misolida). // O'zbekiston Geografiya jamiyatni axboroti. 48-jild. -Toshkent. 2016. –B.39-44. (Some issues of rural population and its social infrastructure provision (in the example of Fergana economic district). // Information of the Geographical Society of Uzbekistan. Volume 48. - Tashkent).
6. Назаров М.И. Территориальная организация медицинского обслуживания населения в сельской местности (на примере Наманганской области). Автореф. дисс.канд.геогр. наук. – Т., 1996. – 24 с. (Territorial organization of medical care for the population in rural areas (using the example of the Namangan region). Author's abstract. diss.candidate of geography sciences).
7. Soliyev A.S., Nazarov M.I. O'zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi). – T.: Fan va texnologiya, 2009, - 212 b. (Villages of Uzbekistan (Geography of rural areas).